

TARIXIY ROMAN JANRIDA TARIXGA MUNOSABAT VA BADIY TALQINDAGI YANGILANISHLAR

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

elmurodjumayev272@gmail.com

Axborot texnologiyalari va
menejment universiteti dotsent v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqola tarixiy roman janrining o'ziga xos xususiyatlari va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiladi. Tarixiy roman janrning evropa va o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos asarlari tahlil qilingan, o'xshash va farqli jihatlari xususida so'z yuritilgan. O'zbek adabiyotida, xususan Pirmqul Qodirov, Abdulla Oripov ijodida bu janrning milliy talqiniga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari tarixiy romanning adabiyotdagi muhim o'rni va uning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, Pirmqul Qodirov, Abdulla Oripov, Ibrohim Mirzayev, Bahodir Ermatov, Amir Temur, yevropa nasri, o'zbek adabiyoti.

Abstract. This article analyzes the specific features of the historical novel genre and its stages of historical development. The historical novel genre is analyzed in its specific works in European and Uzbek literature, and its similarities and differences are discussed. Uzbek literature, particularly the works of Pirmqul Kadirov and Abdulla Oripov, has paid special attention to the national interpretation of this genre. The results of the study show the important role of the historical novel in literature and its modern development trends.

Keywords: historical novel, Pirmqul Kadirov, Abdulla Oripov, Ibrohim Mirzayev, Bahodir Ermatov, Amir Temur, European prose, Uzbek literature.

Абстрактный. В статье анализируются особенности жанра исторического романа и этапы его исторического развития. Анализируются уникальные произведения жанра исторического романа в европейской и узбекской литературе, обсуждаются сходные и разные аспекты. Особое внимание уделено национальной интерпретации этого жанра в узбекской литературе, особенно в творчестве Пиримкула Кадырова и Абдуллы Орипова. Результаты исследования показывают важное место исторического романа в литературе и направления его современного развития.

Ключевые слова: исторический роман, Пиримкул Кадыров, Абдулла Орипов, Ибрагим Мирзаев, Бахадир Эрматов, Амир Темур, европейская проза, узбекская литература.

Mustaqillik yillarida milliy tarixga nisbatan haqqoniy munosabatda bo'lish imkoniyatining qo'lga kiritilishi ijodkorlarning o'tmish voqeligiga hech qanday g'oyaviy yo'l-yo'riqlarsiz, mantiqiy mezonlarga tayangan holda yondashishi uchun sharoit yaratdi. Bu jarayon tabiiy ravishda tarixiy voqealarning badiiy talqini mazmun-mohiyatida ham jiddiy o'zgarishlarni paydo qildi. Tarixiy asarlarga nisbatan turli sabablarga asoslanib, chuqur tanqidiy munosabatda bo'lish jarayonining barham topishi ijodkorlarning o'tmish voqeligini aks ettirish borasidagi ijodiy niyatlarini to'g'ri yo'naltirishi uchun zamin tayyorladi. Bu holat yangicha ijodiy yondashuvlar asosida yaratilgan tarixiy romanlarning ko'plab yaratilishi va munosib e'tirof etilishiga sabab bo'ldi. Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlari o'z vaqtida qattiq tanqid qilingan, bir qancha iste'dodli va e'tiborli adabiyotshunos hamda ijodkorlar tomonidan zararli asar sifatida baholangan edi. Adibning istiqlol yillarida yaratilgan "Ona lochin vidosi" romani erkin ijodiy yondashuvlar qaror topgan sharoitda adabiy jamoatchilik va o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Romanda temuriylar davridagi ayrim voqealarni talqin qilishda, shuningdek, katta nufuzga ega bo'lgan malika Gavharshodbegim obrazini gavdalantirishda yangicha yondashuvlar yaqqol namoyon bo'ladi. Bu talqin, eng avvalo, istiqlol davri nasrida paydo bo'lgan

badiiy talqindagi yangilanishlarning ta'siri vositasida yuzaga chiqqanini ilg'ash qiyin emas.

Adabiyotshunos Ibrohim Mirzayev 1981-yilda yozilgan "O'zbek tarixiy romanlarining janr xususiyatlari" maqolasida Amir Temur obrazining talqinlari borasida bahsli fikrlarni bildiradi, shuningdek, bu tarixiy shaxsning faoliyatiga o'sha davr mafkurasi ta'siri ostida u qadar xolis bo'lmagan mulohazalarni bayon qiladi: "O'rta Osiyodagi markazlashgan feodal davlat arbobi, yirik sarkarda Amir Temurning harbiy yurishlari natijasida ko'p o'lkalarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta zarar yetgan. Temurning bosqinchilik yurishlari bir qator xalqlarga ofat keltirgan. Ayni vaqtda markazlashgan davlatning yuzaga kelishi bilan diniy nizolarga (shia va sunniy mazhablari o'rtasidagi) ma'lum darajada chek qo'yildi, xalq o'rtasida yetishib chiqqan mohir san'atkorlar qo'li bilan ajoyib arxitektura yodgorliklari yuzaga keldi, yozuvchilarimizning tasvir obyekti bo'lgan shoir va olimlar yetishdi"¹. Adabiyotshunos o'z fikrini Amir Temur shaxsi amalga oshirgan harbiy yurishlarning ko'plab hududlarga ijtimoiy-iqtisodiy zarar yetkazganini ta'kidlashdan boshlaydi. Uning o'z davlatiga qo'shib olgan o'lkalarda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlarini qayd etishni istamaydi. Holbuki, Amir Temurning dunyoning turli chekkalarida amalga oshirgan qurilish va bunyodkorlik ishlari haqidagi ma'lumotlar sovet ilm-faniga yaxshi ma'lum bo'lgan tarixchi A. Yakubovskiyning ilmiy risola va maqolalarida berilgan edi². Bunday ma'lumotlar ushbu maqolada ham sovet davrida yaratilgan, sohibqiron obrazi mavjud bo'lgan badiiy asarlarda ham qayd etilmaydi. Adabiyotshunos o'sha davrda muhtasham arxitektura yodgorliklarining "xalq o'rtasida yetishib chiqqan mohir san'atkorlar" tomonidan yaratilganini ta'kidlaydi. Biroq bu ishlarning tashabbuskori kim bo'lganini, "mohir san'atkorlar"ni bunyodkorlik ishlari uchun kim yollaganini qayd qilishni xohlamaydi. Shu holatning o'zi tarixiy shaxsga baho berishda real faktlarni yashirib, emotsionallikka urg'u

¹ Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: "Фан", 1983. – 92-б.

² Якубовский А. Уложение Тимура. – Ташкент, 1904.; Якубовский А. Тимур // Вопросы истории. 1946. № 8–9. С. 42–74.

berilayotganini ko'rsatadi. Adabiyotshunos o'sha davr hayotiga baho berar ekan, "yozuvchilarimizning tasvir obyekti bo'lgan shoir va olimlar yetishdi", deyish bilan yana bir bahsli fikrni yuzaga chiqaradi. U shoir va olimlarning tasvir obyekti bo'la olishini ta'kidlash orqali, Amir Temur badiiy asar qahramoni bo'lishga qodir bo'lmagan shaxs, degan fikrni bilvosita anglatmoqchi bo'ladi. Ayni shu nuqtada bildirilayotgan fikrning mantiqan noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi. XX asrga qadar G'arbiy Yevropa ijodkorlari tomonidan Amir Temurga bag'ishlangan o'nlab nasriy, dramatik va she'riy asarlarning yaratilgani adabiyotshunoslikka yaxshi ma'lum edi.

Adabiyotshunos Ibrohim Mirzayevning yuqoridan keltirilgan fikrlari sovet adabiyotida Amir Temur obraziga nisbatan umumiy yondashuvlarning asosiy xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. O'sha davr adabiyotida temuriy shahzodalar obrazlarini yaratish masalasiga ham ijodkorlarning ehtiyotkorlik bilan yondashgani sezilib turadi. Mirzo Ulug'bek va Bobur haqidagi romanlarda bu shaxslarning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga u qadar urg'u qaratilmadi. Asarlar badiiy konsepsiyasida bu qahramonlarning ilmiy va ijodiy ishlarini ulug'lash borasidagi qarashlar ustuvorlik qildi. Toj-u taxtning baxtsizlik keltirishi, ushbu qahramonlarning ijodiy va ilmiy faoliyat uchun hukmdorlikdan voz kechishga tayyor bo'lganligi qayd qilingan tasvirlarga alohida urg'u berildi. Shu asnoda personajlarning obraz poetikasida shoh sifatidagi pozitsiyasini susaytirishga, olim va shoir sifatidagi rolini kuchaytirishga harakat qilindi.

Yevropa nasrida ham Amir Temur obrazi talqinlari borasida o'ziga xos yondashuvlar mavjud bo'lgan. Jan Dyu Bekning "Buyuk imperator Amir Temur tarixi", Xans Levenklauning "Turk millatining yangi xronikasi", Hilda Hukhemning "Yetti iqlim sultoni", Harold Lembning "Hukmron va sarkarda", Mishel Doychning "Amir Temur yoxud Qiyomat qoyim o'yinlari" hamda Marsel Brionning "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur" asarlarida bu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi. Yevropa nasri namunalarida Amir Temur obrazini yaratishda bir-biridan tamoman farqli bo'lgan yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Ayrim asarlarda mualliflar Amir Temur

haqida uygʻonish davrida Yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan turli shov-shuvlar va tarixiy haqiqatga mos boʻlmagan maʼlumotlarga tayangan. Bunday asarlarda sohibqiron asos solgan davlatning nomi, u bilan jang qilgan raqiblarining ismi ham toʻgʻri ifoda etilmagan. Mualliflarning aksariyati Temurning Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirimni magʻlubiyatga uchratishini turli yoʻsinda olqishlagan, uning qahramonliklarini fantastik yoʻsinda talqin qilishga uringan. Bu holat Usmonli turklarning Anqara jangidagi magʻlubiyati koʻplab Yevropa xalqlarining oʻz mustaqilligini saqlab qolishiga imkon berganligi bilan bogʻliqdir. Mualliflar Amir Temur siymosini gʻarb mamlakatlarining doʻsti sifatida namoyon qilishga ayni shu sabablarni eʼtiborga olganlar.

Yevropalik ijodkorlar asarlarida Amir Temur va Boyazid Yildirim oʻrtasidagi qarama-qarshilikni aks ettirish jarayonida tarixiy haqiqatlarga muvofiq boʻlmagan koʻplab talqinlarni yaratganlar. Amir Temurning magʻlubiyatga uchragan Boyazidni qattiq qiynoqqa solgani, unga ortiqcha hurmatsizlik qilgani aks ettirilgan epizodlar koʻplab uchraydi. Adabiyotshunos Bahodir Ermatov “Amir Temur Gʻarbiy Yevropa adiblari nigohida” monografiyasida ayni shu jihatlarga alohida eʼtibor qaratadi. “Hatto Gʻarbiy Yevropa katoliklarining boshligʻi papa Piy II ham oʻzining “Osiyo va Yevropaning beqiyos tasviri” (1534) asarida Amir Temur oʻz harbiy yurishlari chogʻida Boyazidni temir qafasga solib yurardi, degan tuhmatli fikrni bildiradi. Uning bu fikrini Georgiy Frantsios ham takrorladi. Petro Perondini esa oʻz solnomasida (1553) yuqoridagi barcha uydirmalarni birlashtirdi va ularga bandi etilgan sulton xotinining Amir Temur tomonidan tahqirlanishi hamda Boyazidning oʻz joniga suiqasd qilganini ham qoʻshadi”³.

Bu kabi epizodlar sohibqiron haqidagi koʻplab asarlarda mavjud boʻlsa-da, mualliflar tomonidan voqeaning tarixiy asoslari, qaysi manbalarda qayd qilingani koʻrsatib berilmagan. Temurning Boyazidni qiynoqqa solgani, uni temir qafasda saqlagan borasidagi talqinlar Yevropa uygʻonish davri dramaturgiyasining mashhur

³ Эрматов Б. Амир Темур Гарбий Европа адиблари нигоҳида. Монография. – Тошкент: “Navroʻz”, 2019. – 66-6.

namoyondasi Kristofer Marlonining “Buyuk Temur” dramasida ham mavjud. To‘qima obraz bo‘lgan malika Zenokrata Boyazidning rafiqasi Zabinani turli xil qiynoqlar bilan azoblaydi. Amir Temur haqidagi tarixiy manbalar bilan yaxshi tanish bo‘lgan Abdulla Oripov “Sohibqiron” dramasida g‘olib Temurning mag‘lub Boyazidga hurmat ko‘rsatganini aks ettiradi. Temur Boyazidning qo‘llarini arqondan bo‘shatishni buyurib, uning shoh bo‘lgani uchun munosib hurmat ko‘rsatishga loyiq shaxs ekanini ta’kidlaydi. Asarda Temur donishmand hukmdor sifatida Boyazidning nohaqligini mantiqiy asosda uning o‘ziga isbotlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: “Фан”, 1983. – 92-б.
2. Якубовский А. Уложение Тимура. – Ташкент, 1904.; Якубовский А. Тимур // Вопросы истории. 1946. № 8–9. С. 42-74.
3. Эрматов Б. Амир Темур Ғарбий Европа адиблари нигоҳида. Монография. – Тошкент: “Navro‘z”, 2019. – 66-б.
4. Жумаев Э. Мустақиллик даври ўзбек романларида Амир Темур образи талқинларининг қиёсий таҳлили (Муҳаммад Али ва Нурали Қобул романлари мисолида). Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. Қарши – 2023. 23-б.
5. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986. – 22-б.